

XV-XVI ASRLARDA SAMARQANDDA ILM-FAN

Jasur Toshpulatov

Tour guide in Registan Square, Samarkand, Uzbekistan

Annotatsiya: Dunyoda globallashuv davrida inson qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda mutafakkir allomalarining ilg'or va buniyodkor g'oyalarini o'rganish, targ'ib qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda XV-XVI asrlarda Samarqandning ilm-fan markaziga aylanganini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu davr rennesans davri bo'lib tarixda qolgan. Mazkur maqolada ushbu masalaning bayoni keltiriladi.

Kalit so'zlar: Samarqand, ilm-fan, adabiyot, muhit, ijod, tarix.

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ilmiy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida dunyoga mashhur allomalarimiz ilmiy merosini, yaratgan ta'limotlari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borad Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz ajodolarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz" [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

E.Yorshotir bu davr adabiyotini har tomonlama tahlil qilib boshqa xususiyatlari qatorida shoirlarning tatabbu' yozish va naziranavislik yo'naliishiga alohida e'tibor bergen [10]. U Xuroson shoirlarining javobnavislik yo'naliishini tahlil qilish orqali uning markazi Hirotda XV asr birinchi yarmida kuchli adabiy muhit mavjudligini isbotladi. Ma'lumki, bu davrda ikki asosiy adabiy markaz – Samarqand va Hirot adabiy muhitlari faol edi va Samarqandda asosan Mavarounnahr adiblari, Hirotda esa Xuroson adiblari to'plagan edilar. Ta'kidlash joizki, mazkur muhaqqiq Mavarounnahr adabiy muhitini har tomonlama tadqiq qilmagan, zero buning uchun unda shu adabiy muhitga oid materiallar yetarli bo'lmagan. Hatto uning o'zi ta'kidlashicha, bu adabiy muhitning eng kuchli shoirlaridan biri bo'lgan Xoja Ismatning devoni ham uning qo'lida mavjud bo'lmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ammo bu borada olib borgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Mavarounnahr adabiy muhitida keng miyosli mushoiralar hamda shoirlarning javob yozish orqali kuch sinashlari an'anasi keng tarqalgan edi. Har bir shoir boshqalardan ustunlikni qo'liga kiritish uchun she'rlarida yanada ko'proq mazmun va obrazlarni va yangidan-yangi ma'nolarni qo'llashga harakat qildi. Bu jarayon tahlilidan ham ijobiy, ham salbiy jihatlari oydinlashadi. Ijobiy tomoni shundaki, bu intilish va sa'y-harakatlar natijasida shoirlar yanada ko'proq yangi va hali ishlatilmagan mazmun va obrazlarni yaratishga erishadilar. Mavarounnahr adabiy

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

muhitining eng mashhur shoirlarining devonlarini tahlil qilinishidan ma'lum bo'ladiki, ular ham oldingi buyuk shoirlar she'rlariga javob yozishga harakat qilish natijasida yangi mazmun va obrazlarni yaratishga muyassar bo'lganlar. Masalaning salbiy tomoni esa ayrim muddaiy shoirlar javobnavislik yo`nalishini shoirlar o'tasidagi keskin bahs-munozara hatto tortishuvga aylantirardilar va aytish mumkinki, ayrim shoirlardagi xudbinlik hissi ortib o'zlariga raqib deb bilgan ijodkorlarga, hatto adabiyotning buyuk namoyandalari nisbatan hamta'na va haqoratomuz so`zlarni ravo ko'rardilar. Shunga o'xshash bahs-tortishish masalan, Bisotiy Samarqandiy va Kamol Xo'jandi yoxud Xoja Ismat va Barandaqlar o'tasida sodir bo'lgan edi [2, 640].

O'tmishda va bugungi kunda adabiyotshunoslikda olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, XIV asr oxirlari XV boshlarida Samarqand adabiy muhitining rivojlanishi jarayoni va uning namoyandalari, shu adabiy muhitda yashab ijod qilgan shoir Bisotiyning ijodiy merosi haqida fors-tojik, turkiy tildagi manbalarda qisqacha ma'lumotlar keltirilgan [5, 237], ammo bular shoir vafotidan keyinroq ta'lif etilganligi, ularda ma'lumotlarning takrorlanganligi bois masalaning ko'p jihatlari aniqlanmay qolgan.

Maqolada tahlil etilayotgan davr ilm-fani borasida gap ketganda Mirzo Ulug'bek alohida ahamiyatga ega. Taniqli matematik va tarixchi olim A.Ahmedov fikriga ko'ra Amir Temuring saroyidagi eng yirik olimlardan biri Mavlono Ahmad Ulug'bekka dastlabki astronomiyaga oid bilimlarni bergen bo'lishi mumkin [2]. Ammo Mirzo Ulug'bek "Zij" asarida Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi. Mirzo Ulug'bek yoshligidanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi astronom va matematiklar ta'sirida o'z davrining yirik olimlardan biriga aylandi.

O'z navbatida, Mirzo Ulug'bek qadimgi yunon olimlaridan Aflatun (Platon), Arastu (Aristotel), Ibbarxus (Gipparx), Batlimus (Ptolemey-Chor maqola yoki Samara, yunoncha Karpox) va Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiyalarning (Kitobi samara) asarlarini tahlil qilib zamondoshlariga yetkazgan. Akademik V.V. Bartoldning ta'kidlashiga ko'ra "islom olamida Ulug'bekkacha hech bir podshoh olim bo'limgan" [5].

Mirzo Ulug'bek davrigacha yulduzlarning astronomik jadvalini Klavdiy Ptolemy Misrning Iskandariya shahrida eramizning II asrida tuzgan bo'lib, bu jadvalda 1029 ta yulduzlarning samodagi kordinatalari berilgan. Islom olamida Mirzo Ulug'bekdan avval Sherozda Abdurahmon So'fify (X asr) "Turg'un yulduzlar suratlari" nomli yulduzlar jadvalida 1017 ta yulduzni, Abu Rayxon Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" va Nasriddin Tusiyalarning "Ziji Elxoni" asarlari astronomiyaga bag'ishlangan edi.

Markaziy Osiyoda mo'g'ul bosqinidan keyin birorta falakkiyotshunoslikka oid tadqiqot ishlari va asarlar yozilmagan edi. Shu maqsadda Mirzo Ulug'bek Samarqandda madrasadan tashqari 1424-1429 yillar ichida ulkan rasadxonani bunyod ettirdi va astronomik kuzatishlarni olib bordi. Jumladan, tarixchi Abu

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Tohirxoja "Samariya" asarida keltirishicha: "Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ining bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi". Madrasa va rasadxonaning o'zaro birgalikdagi ilmiy faoliyati Mirzo Ulug'bek ilmiy mакtabida astronomiya va matematika fanlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Mirzo Ulug'bekning astronomik kuzatishlari Iskandariya, Bog'dod va Damashq, Tabrizda boshlangan astronomik kuzatishlarni davom ettirsada, ularga nisbatan nazariy va amaliy jihatdan mukammal, ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, "Zij" so'zining ma'nosi katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi uchun ushbuasrar arabcha "Zij", forscha "Zik", turkiycha "Zich" deb aytilgan. "Zij" asari ikki qismidan: muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va joylashishi aniqlab berilgan astronomik jadval, 1437 yilda tuzilgan. E'tiborli tomoni, muallif asarning kirish qismida Qur'oni karimdan yulduzlar, sayyoralarga oid oyatlarni qayd etadi va keltirilgan ilmlarni nazariy va amaliy jihatdan dunyoviy bilimlarga bog'liq, adekvat (o'xshash, mos) ekanligini ta'kidlab o'tadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Amir Temur va temuriylar sultanati, ayniqsa Mirzo Ulug'bek haqida G'arbiy Yevropa xalqlari va mamlakatlari XV asrdanoq bilardi. "Zij"ning G'arbiy Yevropa ilm-faniga ham ta'siri yetarli darajada katta bo'lgan.

Ayniqsa, Ali Qushchinining Turkiyadagi faoliyati tufayli Mirzo Ulug'bekning ilmiy mакtabi haqidagi xabarlar Yevropa ilmiy jamoatchiligiga keng tarqaldi. 1638 yili Oksforduniversiteti sharqshunos professori Jon Grivs Istambulga tashrif buyuradi va Mirzo Ulug'bek "Zij"ining nusxasini Angliyaga olib ketadi. Jon Grivs 1648 yili Britaniyada "Zij"dagi 98 yulduz va geografik jadvalni, 1650-1652 yili "Zij"ning ayrim qisimlarini lotin tilida nashr ettiradi. 1665 yili ingliz sharqshunosi Tomas Xayd "Zij"dagi turg'un yulduzlar jadvalini forscha va lotinchada chop etadi. Ushbu nashrlarning qiziq tomoni Hayd va Grivs bir birining ilmiy ishlaridan butunlay bexabar bo'lishgan. 1680-yili polyak olimi Yan Geveliy Dansigda "Zij"ning ayrim qisimlari va jadvallarini chop etadi. 1847- 1853 yillarda fransuz sharqshunosi L.A. Sediyo "Zij"ning ayrim qismlarini fransuz tilida nashr etadi.

Shunday qilib XV-XVI asrlarda Samarcand ilm-fan markaziga aylanganini, fanga oid yutuqlar butun jahon darajasida bo`lganligini ko`rish mumkin, bugungi kunda Yangi O`zbekistonning yoshlari uchinchi Renessans doirasida ilm olib, izlanib tarixdagи bobolarimiz yo`lidan borishmoqda, shunday ekan kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi// <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
2. Ahmedov Ashraf. Ulug'bek, Muhammad Tarag'ay. – Toshkent.: O'zbekiston, 2011. – B.28.
3. Mirzo Ulug'bek. Ilmu Nujum. Tarjimon, izohlar muallifi Ashraf Ahmad. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy, 1994. – B.3-19.
4. Mirzo Ulug'bek. Ilmu Nujum. Tarjimon, izohlar muallifi Ashraf Ahmad. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy, 1994. – B 20.
5. Bartold V.V. Ulug'bek va uning davri / Asarlar. - Moskva.: Nauka, 1964. - T. II. 2-qism. - C 134-146
6. Abdullaev A. XV asrning birinchi yarmida tojik adabiyotining rivojlanish masalalari (Samarqand adabiy doirasi). – Dushanbe: Buxoro, 2016. – 46 b.
7. Ali Ibrohim Xalil. Tazkirai Suhufi Ibrohim. Tehron universiteti markaziy kutubxonasi mavjud bo`lgan qo`lyozma nusxasidan faksimilesi. 640 b.
8. Bushmin A.S. Preemstvennost v razvitiu literatury, -2 izd. – L.: 1978.-223 b.
9. Vamberi, Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyotva san'at nashriyoti, 1990. – 96 b.;
10. Yorshotir, Ehson. Shohruh davrida fors she'riyati. - Tehron: 1334. - 10-b.